OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA TO‘G‘RISIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Xosiyatxon Rajabaliyevna Parpiyeva*
Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika yo’nalishi 1-kurs magistranti
✉ parpiyevaxosiyatxon15@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oila institutini mustahkamlashning ma’naviy-pedagogik asoslari Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy merosi asosida tahlil qilingan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur va Alisher Navoiy asarlarida inson kamoloti, axloqiy tarbiya, ota-ona mas’uliyati, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar hamda jamiyat barqarorligiga oid qarashlar o‘rganilgan. Qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik yondashuvlari asosida mutafakkirlar merosidagi g‘oyalarning zamonaviy oila pedagogikasi bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Tahlil natijasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish va mahalla–maktab–oila hamkorligini rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

oila instituti, Sharq mutafakkirlari, oila pedagogikasi, oilaviy tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ota-ona mas’uliyati, farzand tarbiyasi, komil inson.

DOI: 10.5281/zenodo.24500252

KIRISH

Oila jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, unda insonning dastlabki ma’naviy-axloqiy qarashlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Shaxs tarbiyasining dastlabki va uzluksiz muhiti sifatida oila jamiyatning ma’naviy barqarorligi, avlodlar davomiyligi hamda milliy qadriyatlarning saqlanishida muhim o‘rin tutadi [8]. Bugungi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oilaviy qadriyatlar, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqot, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalariga yangicha yondashishni talab etmoqda.

Mazkur masalalarni ilmiy jihatdan yoritishda Sharq mutafakkirlarining ma’naviy va pedagogik merosi muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” [1], Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” [2], Abu Ali ibn Sinoning tibbiy-falsafiy asarlari [3], Kaykovusning “Qobusnoma” [4], Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” [5], Amir Temurning “Temur tuzuklari” [6] hamda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” [7] asarlarida inson kamoloti, axloq, bilim va tarbiya masalalari bayon etilgan. Shuningdek, A. Q. Munavvarovning “Oila pedagogikasi” tadqiqotida oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda milliy an’analar va xalq pedagogikasining o‘rni yoritilgan [8].

Tadqiqotning maqsadi - Sharq mutafakkirlarining inson kamoloti, axloqiy tarbiya va oilaviy munosabatlarga doir qarashlarini tahlil qilish hamda ulardan bugungi kunda oila institutini mustahkamlashda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

Metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil, manbashunoslik, matn mazmunini sharhlash, tizimli tahlil va pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichda tashkil etildi: birinchi bosqichda Sharq mutafakkirlarining asarlari o‘rganilib, ulardagi inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ijtimoiy munosabatlarga oid qarashlar ajratib olindi; ikkinchi bosqichda aniqlangan g‘oyalar qiyosiy-pedagogik yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning zamonaviy oila tarbiyasi bilan bog‘liqligi o‘rganildi; uchinchi bosqichda ilmiy tahlil natijalari umumlashtirilib, oila institutini mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar

Nazariy-qiyosiy tahlil natijasida Sharq mutafakkirlarining oila va shaxs tarbiyasiga oid yettita asosiy pedagogik yo‘nalishi tizimlashtirildi [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7].

1. jadval

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ularning zamonaviy oila tarbiyasidagi ahamiyati

№	Mutafakkirlar	Asosiy pedagogik g‘oya	Zamonaviy oilaviy tarbiyadagi ahamiyati
1.	Abu Nasr Forobiy [1]	Adolat, ezgulik va hamkorlik	Oilada sog‘lom munosabat va hamjihatlik
2.	Abu Rayhon Beruniy [2]	Urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni o‘rganish	Milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazish
3.	Abu Ali ibn Sino [3]	Jismoniy va ruhiy salomatlik	Bolaning sog‘lom rivojlanishini ta’minlash
4.	Kaykovus [4]	Odob, ilm va kasb-hunar	Farzandni mustaqil hayotga tayyorlash
5.	Yusuf Xos Hojib [5]	Adolat, aql va bilim	Mas’uliyatli va ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash
6.	Amir Temur [6]	Intizom, qat’iyat va mas’uliyat	Farzandlarda burch va vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish
7.	Alisher Navoiy[7]	Mehr-oqibat, insonparvarlik va hurmat	Oilada ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash

Jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Forobiy qarashlarida adolat va hamkorlik oiladagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilsa [1], Beruniy merosi milliy va madaniy qadriyatlarni anglash imkonini beradi [2]. Ibn Sinoning salomatlikka oid qarashlari farzandning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi [3]. Kaykovus va Yusuf Xos Hojib merosida ilm, odob, kasb-hunar va mas’uliyat masalalari ustuvor o‘rin tutadi [4; 5]. Amir Temur qarashlarida intizom va burch [6], Navoiy ijodida esa mehr-oqibat, insonparvarlik va o‘zaro hurmat g‘oyalari namoyon bo‘ladi [7].

Muhokama

Olingan natijalar Sharq mutafakkirlarining qarashlari mazmunan turlicha bo‘lsa-da, ularni inson kamoloti, axloqiy yetuklik va jamiyat farovonligiga xizmat qilish g‘oyasi birlashtirishini ko‘rsatadi [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7]. Mazkur merosni zamonaviy oilaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etish ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish va oila institutining ma’naviy asoslarini mustahkamlash uchun muhim imkoniyat yaratadi [8].

Amaliyotda ushbu g‘oyalardan foydalanish uchun oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir mashg‘ulotlarda “Qobusnoma” asaridan foydalanish [4], mahallalarda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish va mahalla-maktab-oila hamkorligini kuchaytirish [8], oilada samimiy muloqot muhitini qaror toptirish [7], oilaviy kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish [1; 2; 5] hamda bolalarda intizom va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish [6] maqsadga muvofiq.

XULOSA

Sharq mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va ma’naviy merosidan zamonaviy sharoitda maqsadli foydalanish oila institutini mustahkamlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 224 b.

2.Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston // Tanlangan asarlar. II jild. - Toshkent: Fan, 1963.

3. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. 5 jildlik. 1-jild. - Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.

4. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma / Fors tilidan Muhammad Rizo tarjimasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1986. - 168 b.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga boshlovchi bilim). - Toshkent: Yulduzcha, 1990. - 188 b.

6. Amir Temur. Temur tuzuklari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2011. - 184 b.

7. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub // Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. - Toshkent: Fan, 1998.

8. Munavvarov, A. Q. Oila pedagogikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1994. - 112 b.